



**Scientific Conference on Multidisciplinary Studies**

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

---

## INNOVATION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI O‘RNI VA AHAMIYATI

Rasulov Sherzod Sharof o‘g‘li  
JizPI, Iqtisodiyot va menejment kafedrası o‘qituvchisi

Maxkamova Sabina Zoirjon qizi  
Jizzax politexnika instituti talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitalining tutgan o‘rni, inson kapitali nazariyasining qo‘llanilishi qanday natijalarga olib kelishi hamda inson kapitalining mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Inson kapitali, innovatsiya, korxona, boshqaruv, davlat siyosati.

## THE PLACE AND IMPORTANCE OF HUMAN CAPITAL IN AN INNOVATIVE ECONOMY

**Abstract:** This article discusses the role of human capital in the development of an innovative economy, the results of applying human capital theory, and the essence of human capital.

**Keywords:** Human capital, innovation, enterprise, management, state policy.

O‘zbekistonning istiqbolga erishishi jamiyatda ilm-fan va ma’naviyat-ma’rifat sohalarining jadallashishiga turtki bo‘ldi. Shu boisdan ilm-fanni rivojlantirish va uni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ana shu mazmundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 28-mayida ilm-fan va oliy ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag‘ishlangan maxsus yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Davlat rahbarining mazkur nutqi ham bevosita “Asosiy maqsad - mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish” deya nomlandi. Bundan



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

ko‘rinib turibdiki, inson kapitali mavzusi bugungi kunda o‘rganilishi muhim bo‘lgan zarur ilmiy-tadqiqotlar jumlasiga kiradi. Zero, globallashtirish jarayonlari shiddatli tus olayotgan ayni paytda inson kapitali va uni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish dolzarb masalaga aylandi. Inson kapitali terminining tarixi va uning jamiyatda ommalashishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning XX asrda yana bir pog‘ona yuqoriga chiqqanligini ko‘rish mumkin. Buning asosiy omili sifatida o‘tgan asrning oxirida odamzodning postindustrial jamiyatga, ya’ni informatsion va innovatsion texnologiyalar davriga qadam qo‘yishini alohida ko‘rsatish mumkin. Bu esa aynan yuqori bilim darajasi va malakasiga ega inson kuchiga bo‘lgan talabni har qachongidan ham oshirib yuborganligini anglatadi.

Iqtisodchi olimlardan ba’zilar inson kapitaliga yondashar ekan, “inson kapitali bu har bitta odamdagi bilimlar, qobiliyatlar yig‘indisidir”, degan xulosaga kelishgan. Kelgusida foyda keltirishini inobatga olib, unga kapitali deb qaraladi. E’tiborli jihati shundaki, u inson bilan uzviy bog‘liq hamda uning ajralmas qismi bo‘lganligi bois unga insoniy kapital sifatida qaraladi. Hudi shunday yondashuvlardan biri S.Fisher, K.Shlamenzi va R.Dornbushlarga tegishli bo‘lib, ular “Ekonomiks” jurnalida o‘zlarining quyidagi fikrlarini bayon qilganlar: “Inson kapitali - insonda o‘z aksini topa olgan va o‘z egasiga daromad olib keluvchi o‘lchov hisoblanadi”. Insoniyat taraqqiyotining postindustrial bosqichi innovatsion iqtisodiyotning shakllanishini, shuningdek, mehnat va iste’mol strategiyasini individlashuvini nazarda tutadi. Bu esa o‘z navbatida insonning iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi faoliyat shakllarini nazariy jihatdan tushunish masalasining dolzarbligini belgilab beradi. Bilimlarga asoslangan zamonaviy iqtisodiyot uchun inson kapitali innovatsion rivojlanishning vositasi va shu bilan birga maqsadini ham ifodalaydi.

Mehnat faoliyati ishtirokchilarining sifat ko‘rsatkichlari yangi ilg‘or g‘oyalarni o‘zlashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy joriy etish sur‘atlarini ta’minlash qobiliyati raqobatda ustunlikning asosiy manbasi hisoblanadi.

Ijtimoiy tizimlarning innovatsion qayta shakllanish sharoitida inson kapitali iqtisodiyot va butun jamiyat innovatsion rivojlanishining asosiy resursi hisoblanadi.

Inson kapitalining innovatsion iqtisodiyotdagi mazmunini nazariy jihatdan o‘rganishda ikki guruh nazariyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

1. Ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyalar. Bunda inson kapitalining ishlab chiqarishdagi o'рни alohida korxona miqyosida ko'rib chiqiladi. Inson kapitali tarkibi xodimning insoniy salohiyati tashkil etuvchilari orqali baholanadi. Shu jumladan, xodimning unumli mehnatga bo'lgan moddiy va ma'naviy qobiliyatlari asosida o'rganiladi.

2. Ijtimoiy-madaniy yondashuvlar. Unga ko'ra, inson kapitali iqtisodiy omillar bilan birga o'z madaniy shakliga asosan ham tubdan farq qiladi. Bu ishtirokchilarning mehnat, boshqaruv va innovatsion faoliyatdagi madaniyatida namoyon bo'ladi. Bunda to'plangan madaniy qadriyatlar jamiyatning innovatsion rivojlanishidagi asosiy omil sifatida qaraladi.

Sanoatlashuvning zamonaviy bosqichida, jamiyatning innovatsion rivojlanish turiga o'tishida inson kapitali o'zida ijtimoiy inson kapitalini aks ettiradi. Mazkur tushunchani belgilovchi holatlar quyilagilardir:

1. Aholining mehnatga layoqatli qismi.
2. Inson kapitalining ta'lim, madaniyat, kasb bilan bog'liq keng qamrovli salohiyatiga ega bo'lgan odamlar.
3. Iqtisodiy harakatlarni amalga oshiruvchi va iqtisodiy tizimlar faoliyatiga ta'sir etuvchi odamlar.
4. O'z ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga erishish uchun iqtisodiy harakatlarni amalga oshiruvchi odamlar.

Shunday qilib, zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitali bu – mehnatga layoqatli aholi, Ijtimoiy, madaniy, ta'limiy, kasbiy qobiliyat shaklidagi insoniy salohiyatga ega bo'lgan, turli ijtimoiy-iqtisodiy shaklda o'z mehnat harakatlarini amalga oshiruvchi odamlarning tashkiliy birlashmasidir.

Innovatsion rivojlanish sharoitida inson kapitali tor ma'noda, ya'ni mehnat jarayonida o'zining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini namoyon etuvchi "yaxlit xodim" sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq emas.

Miqdoriy jihatdan iqtisodiyotning ijtimoiy inson kapitali jamiyatning iqtisodiy harakatlarining sub'ektlari yig'indisini ifodalaydi. Iqtisodiy harakatlar sub'ekti sifatida aholi turmush farovonligini oshirish uchun maqsadli xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi ijtimoiy guruhlar, jamoalar, birlashmalar tushuniladi.

Iqtisodiy harakatlarning turli sub'ektlari inson kapitali sifatida turlicha namoyon bo'ladi. Bu holat odamlarning ijtimoiy statusi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

salohiyati, ishtirokchilar faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq.

Inson kapitali – bu ma'lum ma'noda tartiblashgan tarkibiy elementlar yig'indisi bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

ijtimoiy-demografik komponent bir qator tizimli ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: aholi tarkibi, mehnatga layoqatli aholi tarkibi, tug'ilish va o'lim darajasi, o'rtacha umr ko'rish darajasi, oila institutining rivojlanishi;

jismoniy komponent – aholining jismoniy sog'lig'i va aholining ruhiy sog'lig'i kabi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi;

ijtimoiy-iqtisodiy komponent – uchta ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi: aholi bandligi tarkibi va darajasi; aholining mehnat va intellektual qobiliyatlariga bo'lgan talab; aholining turmush sifati.

ijtimoiy-madaniy komponent – to'rtta ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi: jamiyatda tayanch ta'limning sifati; kasbiy ta'lim darajasi; xodimlarning malaka va kasbiy mahoratining o'sishi; aholining ijtimoiy madaniyati darajasi (shaxsning me'yoriy-qadriyatlar bo'yicha tushunchasi, tamoyillari va e'tiqodlarining o'ziga xosligi, axloqi va odobi darajasi, rag'batlantirishdagi afzalliklari, xulq-atvori, aholining turli qatlamlari va guruh-larining madaniy integratsiya darajasi).

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 3(1), 28–31.
2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(12), 38-42.
3. Sharifa, R., & Ilyos, T. (2023). PRINCIPLES OF SCIENTIFIC MANAGEMENT IN MANAGEMENT. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1097-1100.
4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1093-1096.



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

5. Расулова, Шарифа Гайбуллаевна. "ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 3-8 (2019): 95-100.
6. Uglu, Rasulov Shavkat Sharof. "Analysis of economic reforms increasing labour resources in the republic of uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.11 (2021): 390-396.
7. Sharof, R. S. "Analysis of The State Employment Policy Aimed at The Employment of Labor Resources in The Republic of Uzbekistan." International Journal of Human Capital and Innovative Management 1.1 (2023): 54-61.
8. Расулов, Шавкат. "Ўзбекистон Республикасида меҳнат ресурсларининг иш билан бандлигининг жорий ҳолати таҳлили." Iqtisodiyot va ta'lim 23.2 (2022): 227-232.
9. Расулов, Шавкат Шароф Ўғли. "ТАДБИРКОРЛИК КОРХОНАЛАРИДА ЭКСПОРТ КЎЛАМИНИ ОШИРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ." Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 6 (2024): 255-261.